

VOYAGA YETMAGANLARGA NISBATAN TAYINLANADIGAN JINOIY JAZO TURLARI VA ULARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Ne'matjonova Rayhona Nozimjon qizi

Farg'ona viloyati Yuridik texnikumi

,,Davlat-huquqiy faoliyati“ yo‘nalishi

21-22 guruh o‘quvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jinoiylar jazo turlari va ularning o‘ziga xos jihatlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. 2023-yilda nechta voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatlar sodir etilganligi haqida, 2023-yil 10-oyida respublikamizda 2 ming 130 nafar voyaga yetmaganlar tomonidan 2 ming 221 ta jinoyat sodir etildi. IIB jamoat xavfsizligi departamentining ma’lum qilishicha jinoyatlarda 1 ming 30 nafar mabkab o‘quvchisi ishtirok etgan. Bundan tashqari, maktab, kasb-hunar, litsey o‘quvchilari tomonidan jinoyat sodir etilgan. 140 nafari ishlamay yurganlar, 261 nafar ishlaydiganlar ham jinoyat sodir etishda qatnashgan. Bundan oldin O‘zbekiston Respublikasida 2022-yilda bir qancha voyaga yetmagan shaxs sudlanganligi ma’lum bo’ldi. 1470 nafar voyaga yetmagan sudlangan bo’lsa, 2022-yilda 2 ming 1 yuzi 6 nafarga yetgan. 2022 yilda ham ijtimoiy xavfi katta bo’lmagan jinoyatlar 389 ta, uncha og’ir bo’lmagan jinoyatlar 510 tani tashkil etad va 1217 ta og’ir jinoyatlar tashkil etgan. Jinoyat Kodeksining 81-moddasida voyaga yetmaganlarga tayinlanadigan jinoiylar jazolar tizimi belgilab qo’ylganligi haqida, olimlarning bu mavzuga doir fikrlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Jinoat Kodeksi, jazo, jarima, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish olimlar fikrlari, farmon, jinoyat, javobgarlar, prinsip, odillik, qoida, farmon, jinoyat, javobgarlik, prinsip, odillik, qoida, bo’lim.

Jazo tizimi-jinoyat qonunda belgilangan tartibda og’irlik darajasiga ko’ra, yengilidan og’iriga qarab joylashtirilgan jazo turlari yig’indisi.

Jazo tayinlash-jinoyat sodir etishda qonunda belgilangan tartibda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan JK Maxsus qism moddasi sanksiyada nazarda tutilgan jazoning qo’llanilishi.

Jinoyat qonunda belgilangan insonparvarlik va odillik prinsiplaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining oltinchi bo’limida „Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari“ ko’rsatib o’tilgan bo’lib, ushbu bo’lim 15-16 boblarni o’z ichiga oladi. Mazkur boblarda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jinoiylar jazolar tizimi, jazo tayinlash qoidalari, jinoiylar javobgarlikdan va jazodan ozod qilish masalalari aks ettirilgan. M.X.rustamboev fikricha, sobiq Ittifoq davrida voyaga yetmaganlar jinoyatchiliginining oldini olish va unga qarshi kurashishga yetarli darajada e’tibor berilgan bo’lsa ham, ammo jinoyat qonunidagi bunday jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan normalar shu vaqtgacha biror

marta ham tizimlashtirilgan holda alohida bir bo'limda berilmagan edi.Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir qilinganda, davlat tomonidan ularning bu qilmishiga beriladigan jazoning kattaligi qadimgi quldorlik davlatlariga ham xos bo'lganligini Rim davlatining „12 jadval qonunlari” da ham uchratamiz.

Aytish kerakki, voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jinoiy jazolarda nomutanosibliklar mavjud. Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga jazo tayinlash murakkab jaroyon hisoblanadi.Jinoyat kodeksning 81-moddasida voyaga yetmaganlarga tayinlanadigan jinoiy jazolar tizimi belgilab qo'yilgan,ya'ni bunda ularga nisbatan tayinlanadigan jarima, majburiy jamoat ishlari,axloq tuzatish ishlari,ozodlikni cheklash ozodlikdan mahrum qilish jazolari nazarda tutiladi. Jinoyat kodeksining 82-moddasida jarima jazosini qo'llashga oid qoidalar belgilab qo'yilgan.Jarima jazosi aybdordan davlat daromadiga Jinoyat kodeksda belgilangan miqdorda pul undirish hisoblanadi.

Ushbu jazo voyaga yetmaganlarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda tayinlanadi.Agar mahkum jarima miqdorini olti oy muddat mobaynida to'lashdan bo'yin tovlasa, sud mazkur jazo turini majburiy jamoat ishlari yoki axloq tuzatish ishlari jazosiga almashtiradi.Bunda sud to'lanmagan jarima miqdorini bazaviy hisoblash miqdorining bir barvari miqdoridagi jarimani axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo blan almashtiriladi.Sud tomonidan jarima jazosini voyaga yetmaganlarga qo'llashning xususiyatlari mavjud.Unga ko'ra, jarimajazosini voyaga yetmaganlarga tayinlash to'g'risida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli fikrlar mavjud.M.D.SHargorodskiy „ xalqni umumiy daromadning oshishi bilan jarimani,ayniqsa,kam ahamiyatli jinoyatlar uchun kengroq qo'llashga sharoit yaratiladi”,deb hisoblangan.Jinoyat kodeksning 83-moddasida voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan axloq tuzatish ishlariga oid qoidalar belgilangan.Axloq tuzatish ishlari-bu mahkumni sud xukmi bilan belgilangan muddatga majburiy ravishda mehnatga jalb qilib, uning ish haqidan davlat foydasiga muayyan miqdorda foiz undirish tariqasidagi jazo chorasi hisoblanadi.mazkur jazo turi ham mehnatga layoqatli voyaga yetmaganlarga tayinlanadi.Bu borada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi quyidagicha tushuntirish bergen:,,Ahloq tuzatish ishlari pensiya yoshiga yetgan,o'n olti yoshga to'lman shaxslarga, mehnatga qobiliyatsizlarga, xomilador ayollarga, yosh bolasini boqish uchun ta'tilda bo'lgan ayollarga va harbiy xizmatchilarga nisbatan tayinlanmaydi”.Ushbu jazoni o'tash aybdor voyaga yetmaganning o'z ish joyida, agar u hech qayerda ishlamasa,ushbu jazo ijrosini nazorat qiluvchi organlar belgilab beradigan o'zi yashaydigan hududdagi boshqa joylarda o'taydi.Jinoyat Kodeksining 84-moddasida voyaga yetmaganlarga nisbatan ozodlikni cheklash jazosi belgilangan bo'lib,ushbu jazo O'RQ 389-sonli Qonuni bilan kiritilgan.Ushbu jazo sud tomonidan maxkumga nisbatan yashash joyini u yoki bu sabab bilan tark etishni butunlay taqiqlashdn yoki sutkaning muayyan vaqtida yashash joyidan chiqishini cheklashdan iborat bo'lib, u bir oydan besh yilgacha muddatga tayinlanadi hamda sud tomonidan belgilanadigan organlar nzorati ostida o'taladi.

Jinoyat Kodeksinig 50-moddasiga binoan, ozodlikdan maxrum qilish-mahkumni jamiyatdan ajratib jazoni ijo etish koloniysi yoki turmaga joylashtirishdan iborat bo'lgan jazo turi bo'lib, ushbu jazo umumiyl qoidaga ko'ra, bir oydan yigirma yilgacha muddatga belgilanadi. Jinoyat kodeksi 85-moddasiga ko'ra, voyaga yetmay turib turib ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyat sodir etgan, extiyotsizlik oqibatida jinoyat yoxud qasddan uncha uncha og'ir bo'limgan jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan esa ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo tayinlanmaydi.

Xulosa qilib aytganda, ota onasi va mahallalarda o'zaro baza shakllantirish kerak va o'qish, mahalla o'tasida bazani shakllantirish va bir-birini aloqador qilib turish zarur. Bu esa kelajakda bizga yaxshi natija bo'lib xizmat qiladi. Voyaga yetmaganlar o'tasida jinoyatchilikni oldini olish uchun hammamiz birgalikda kurashaylik!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 1 Mirziyoyev SH.M. „ Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". – Toshkent. „O'zbekiston" NMIU,2017.B 323".
2. Jinoyat huquqi (umumiyl qism) Yuridik texnikum o'quvchilari uchun darslik.-T: TDYU nashriyoti,2021, 294-295 betlar.
3. Ozbekiston Respublikasi Oli Sudi Pleniumi qarorlari // <http://www.lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi: Rasmiy nashr-T.: „ Adolat", 2020.-B 424.